

Go'daklarning so'yilishi



14:00 / 08.08.2021 3117

Bir qibtiy folbin Fir'avn huzuriga kelib shunday dedi:

- «Bani Isroilda bir bola tug'iladi. Sening mulking uni qo'luga o'tadi». Fir'avnning jinniligi qo'zidi. Jallodlariga buyurdiki, Bani Isroilda tug'ilgan har bir go'dak qilichdan o'tkazilsin! Fir'avn o'zini mutloq shoh deb hisoblagani sababli, xohlagan kishisini o'ldirish yoki o'ldirmaslikka o'zini haqli deb bilardi. Xuddi bir cho'pon kabiki, suruvidan xohlagan qo'yini ushlab so'yishi yoki so'ymasligi mumkin edi. Fir'avn jallodlari butun Misr bo'ylab tug'ilgan o'g'il bola qidirib tarqaldilar. Ular qaerda, Bani Isroil qabilasida bir chaqaloq dunyoga kelganidan habar topsalar, go'dakni qo'ydek bo'g'izlardilar. O'rmonda bo'rilar erkin yurardi. O'lkada ilon-chayonlarga hech kim hech narsa demasdi. Lekin Fir'avn mamlakatida tug'ilgan Bani Ya'qub go'daklariga yashash imkoni yo'q edi. Minglab chaqaloqlar ota-onalarining ko'z oldida bo'g'izlandi. Bani Isroilda farzand tug'ilgan kun qiyinchilik va mashaqqatli bo'lar edi. Bu kun mana shu oila uchun (shod-xurramlik emas), mahzunlik va ko'zyoshlar kuni bo'lardi.

Bani Isroilda farzand tug'ilgan kun ta'ziya va marsiyaga aylanar edi. Bir kunning o'zida yuzlab bolalar qurbon qilinar edi. Bu xuddi qurbonlik kuniga o'xshar ediki, unda yuzlab qo'y-echkilar va mollar qurbonlik qilinar edi.

«Darhaqiqat Fir'avn (Musu) yerida tug'yonga tushib uning aholisini bo'lak-bo'lak qildi. U ulardan bir toifani (ya'ni, Bani Isroilni) xorlab, o'g'illarini so'yar, ayollarini

qoldirar edi. Albatta u buzg'unchi kimsalardan bo'ldi» (*Qasos surasi, 4-oyat*).

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad